



XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-17-138-11-163-K/25 Farg‘ona tumani

2026-yilda Farg‘ona tumanini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturi to‘g‘risida

Ma’lumki, hududlarni kompleks rivojlantirish, yuqori iqtisodiy o‘shishga erishish, biznes muhitini yanada yaxshilash, o‘shish nuqtalarini ishga solish, yashil tamoyil va yondashuvlarni keng joriy etish orqali aholi bandligini ta’minlash va daromadlarini oshirish borasida mahalliy hokimliklar mas’uliyati va hisobdorligini oshirish hamda ularning tashabbuskorligi, islohot va o‘zgarishlarga “egallik qilish” rolini kuchaytirishga qaratilgan tizimni joriy etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-dekabrda “Hududlarda yuqori iqtisodiy o‘shish va aholi bandligini ta’minlashning yangi tizimini yo‘lga qo‘yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas’uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-223-sonli Farmoni qabul qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur Farmoni bilan, tegishli Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar hamda tuman va shaharlar Kengashlari tomonidan hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yillik dasturi mahalliy budget parametrlari bilan birga belgilangan muddatlarda tasdiqlash belgilangan.

Shunga ko‘ra, tuman hokimligi tomonidan Farg‘ona tumanini 2026-yilda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturi loyihasi ishlab chiqilib, Kengashga taqdim etilgan.

Farg‘ona tumanini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, **yuqori va barqaror iqtisodiy o‘shishga** erishish, **aholi yashashi va tadbirkorlik faoliyati** uchun qulay shart-sharoit yaratish, **yashil tamoyil va yondashuvlarni** keng joriy etish, **iqtisodiy o‘shishga turtki beruvchi drayver loyihalarni** amalga oshirish orqali aholi bandligini ta’minlash va daromadlarini oshirish, bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-dekabrda PF-223-sonli

Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-dekabrdagi "Hududlarda yuqori iqtisodiy o'sish va aholi bandligini ta'minlashning yangi tizimini yo'lga qo'yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-223-sonli Farmoni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Maqsadli ko'rsatkichlarga erishish hamda bu borada 2026-yil uchun mustahkam zamin yaratish maqsadida 2026-yilda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturi (keyingi o'rinlarda – Dastur)ning asosiy yo'nalishlari quyidagilar etib belgilansin:

a) **sanoatda** yangi sanoat loyihalarini amalga oshirish, tekstil va to'qimachilik, elektrotexnika, oziq-ovqat, neft-kimyo sanoati yo'nalishlarida korxonalar quvvatini oshirish, sanoat markazlarini tashkil etish, kichik sanoat zona imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanish;

b) **xizmat ko'rsatish yo'nalishida** yo'l bo'yi infratuzilma imkoniyatlaridan samarali foydalanish, aholining dam olishi uchun yashil va ko'ngil ochar eko bog'larni tashkil etish, har bir hududda markaziy ko'ngilochar ko'chalarini tashkil etish, savdo, moliyaviy, transport, ta'lim, sog'liqni saqlash xizmatlari hamda turizmni rivojlantirish;

v) **qishloq xo'jaligida** ijaraga berilgan yerlarda namunali loyihalarni amalga oshirish, tomorqalardan samarali foydalanish, sanoat plantatsiya usulida yangi loyihalarni amalga oshirish, dala chetlaridan samarali foydalanish;

g) **qurilishda**, tuman markazi qiyofasini zamonaviy ko'rinishga keltirish, obodonlashtirish hamda yashil tamoyillar asosida zamonaviy uy-joylar qurish, ijtimoiy va infratuzilmani rivojlantirish.

3. Dasturga asosan quyidagilar:

sanoatni rivojlantirish kichik dasturi **1, 1.1-ilovalarga** muvofiq;

qishloq xo'jaligini rivojlantirish kichik dasturi **2, 2.1-ilovalarga** muvofiq;

qurilishni rivojlantirish kichik dasturi **3, 3.1, 3.2, 3.3 -ilovalarga** muvofiq;

xizmatlarni rivojlantirish kichik dasturi **4, 4.1-ilovalarga** muvofiq;

hududiy eksport va investisiyalar hajmini oshirish kichik dasturi **5 va 5.1-ilovalarga** muvofiq;

tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish kichik dasturi **6, 6.1, 6.2-ilovalarga** muvofiq;

aholi bandligini va daromadlarini oshirish, ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish kichik dasturi **7 va 7.1-ilovalarga** muvofiq;

yashil tamoyil va yondashuvlarni joriy etish kichik dasturi **8 va 8.1-ilovalarga** muvofiq;

ijtimoiy sohani rivojlantirish kichik dasturi **9 va 9.1-ilovalarga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Quyidagilarga shaxsiy mas'uliyat yukalatilsin:

tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari - Iqtisodiyot va moliya bolimi boshlig'i – sanoatni rivojlantirish, xizmatlarni rivojlantirish, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish hamda aholi bandligini va daromadlarini oshirish, ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish kichik dasturlarini sifatli amalga oshirish yuzasidan;

tuman hokimning qurilish, to'siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari – qurilishni rivojlantirish hamda yashil tamoyil va yondashuvlarni joriy etish kichik dasturlarini sifatli amalga oshirish yuzasidan;

tuman hokimning o'rinbosari — Investisiyalar, sanoat va savdo bolimi boshlig'i – hududiy eksport va investisiyalar hajmini oshirish kichik dasturini sifatli amalga oshirish yuzasidan;

tuman hokimning hokimning qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari - **tuman qishloq xo'jaligi bolimi boshlig'i** – qishloq xo'jaligini rivojlantirish kichik dasturini sifatli amalga oshirish yuzasidan;

tuman hokimning yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari hamda **hokimning o'rinbosari — Oila va xotin- qizlar bolimi boshlig'i** – ijtimoiy sohani rivojlantirish kichik dasturini sifatli amalga oshirish yuzasidan.

5. Belgilansinki,

- tuman hokimi o'rinbosarlari Dastur ijrosini o'z vaqtida, sifatli va tizimli tashkil etilishini ta'minlaydi;

- tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari - Iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i tomonidan muvofiqlashtirilib boriladi hamda Dastur ijrosini **har chorak yakuni bo'yicha keyingi oyning 25-sanasiga qadar** Xalq deputatlari tuman Kengashiga kiritib boriladi.

6. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari - Iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i O.Abduraximov:

Dasturlarda belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarni 2026-yil yakuni bo'yicha qayta ko'rib chiqish va zarurat bo'lganda qo'shimcha va o'zgartirish kiritish:

har haftada "Hokimlik soati" va boshqa idoraviy kengaytirilgan yig'ilishlarda Dasturda belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarni o'z vaqtida, sifatli va tizimli bajarilishini tanqidiy muhokama qilib borsin;

har chorak yakuni bo'yicha topshiriqlar ijro holati bo'yicha, jumladan, maqsadli ko'rsatkichlarni muddatidan kechikib bajarilganlik yoki umuman bajarilmaslik sabablarini (*har bir topshiriq bo'yicha*) chuqur tahlil qilib, uning sabab va omillari, shuningdek, ushbu kamchiliklarga yo'l qo'ygan rahbar va xodimlarga nisbatan intizomiy javobgarlik choralari qo'llash bo'yicha takliflar aks etgan axborot kiritib borsin.

7. Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari O'zbekiston Respublikasining "Xalq deputatlari viloyat, shahar va tuman Kengashi deputatining maqomi to'g'risida"gi Qonunida belgilangan deputatning huquq va majburiyatlaridan kelib chiqib, topshiriqlar ijro holati bo'yicha, jumladan, maqsadli ko'rsatkichlarni o'z vaqtida, sifatli va tizimli bajarilishi yuzasidan deputatlik nazoratini olib borsin.

Bunda, hokimlik va soha mutaxassislarini jalb qilgan holda monitoring o'rganishlar olib boriladi, shuningdek, bu borada mas'ullarning hisobotlarini tegishli doimiy komissiyalar yig'ilishlari Kengash sessiyalari eshitib boriladi.

8. Mazkur kengash qarorining ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari raislari hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari - Iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i O.Abduraximov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



**INOMOV
XAMIDULLO
TADJIYEVICH**

Xalq deputatlari Farg‘ona tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-17-138-11-163-K/25 -son qaroriga
1-ilova

**2026-yilda Farg‘ona tumanida sanoatni rivojlantirish
KICHIK DASTURI**

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Moliyalashtirish manbasi (mln. so‘m)	Muddati	Mas‘ullar
1.	Tumandagi mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish va yangi quvvatlarni ishga solish hisobiga barqaror o‘sinh sur‘atlarini ta‘minlash.	1. Sanoat ko‘rsatkichlari natijalarini taxlil qilish hamda «pastdan yuqoriga» tamoiyili asosida muammolarni hal etish choralari ko‘rish. 2. Korxonalarni ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xisobotlarda aks ettish choralari ko‘rish. 3. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini 2288,2 mlrd.so‘mga o‘sinh sur‘atini 106,9 foizga bajarilishini ta‘minlash.	Mablag‘ talab etmaydi	2026-yil davomida Har oyning 10 sanasiga qadar 2026 yil yakuni bilan	Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari O.Abduraximov, Statistika bo‘limi, Iqtisodiyot va moliya bo‘limi
2.	Kichik sanoat zonasi va Yoshlar sanoat zonasidagi mavjud 15 gektar bo‘sh yer maydonlariga 40 ta yangi loyihalarni joylashtirib, ularda ishlarni boshlash hisobiga 48 mlrd. so‘mlik qo‘shimcha sanoat hajmlarini yaratish.	1. Bo‘sh yer maydonlarining auksion savdolariga chiqarilishini ta‘minlash. 2. Mavjud bo‘sh yer maydonlariga salohiyatli maxalliy va xorijiy investorlarni jalb qilish maqsadida targ‘ibot ishlarini olib borish. 3. Tadbirkorlarga ko‘maklashish orqali investitsiya loyihalarini amalga oshirish va qo‘shimcha sanoat hajmlarini yaratish uchun zaruriy choralari ko‘rish.	42,5 mlrd.so‘m (35,2 mlrd. so‘m tashabbuskor mablag‘lari, 7,0 mlrd. so‘m tijorat banklari kredit mablag‘lari)	2026 yil mart aprel 2026 yil	Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (O.Abduraximov), Iqtisodiyot va moliya bo‘limi, Investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi, Tegishli tashkilot va bo‘limlar

3.	Xorijiy investitsiyalarni jalb qilgan holda yirik investitsiya loyihalarini ishga tushirish.	1. Umumiy qiymati 10 mln. dollar bo'lgan 1 ta loyihani shakllantirish. 2. Loyihalarning tarmoq jadvallarini ishlab chiqish va tasdiqlash. 3. Loyihalarni ishga tushirish.	120,0 mlrd. so'm (36 mlrd. so'm tashabbuskor mablag'lari, 7,0 mln.dollar xorijiy kredit liniyalari)	2026 yil mart aprel 2026 yil	Tuman hokimining o'rinbosari Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi boshlig'i A.Axrоров,
4.	Mavjud 1 ta yirik, 4 ta kichik sanoat korxonalari quvvatlarini oshirish hisobiga qo'shimcha 68,4 mlrd. so'mlik sanoat hajmlarini statistik hisobotlarda aks ettirish.	1. Ro'yxat asosida korxonalarni joyiga chiqqan holda o'rganib muammolarni aniqlash. 2. Muammolarni hal qilish bo'yicha tezkor choralarini ko'rish orqali qo'shimcha sanoat hajmlarini yaratish. 3. Qo'shimcha sanoat hajmlarini statistik hisobotlarda aks ettirish.	Mablag' talab etilmaydi	2026 yil fevral har oyda hisobot davrida	Tuman hokimining o'rinbosari Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi boshlig'i A.Axrоров,
5.	Ishlab chiqarish hajmini kamaytirgan korxonalarning manzilli ro'yxatini shakllantirib, kamaytirish sabablarini doimiy o'rganish.	1. Ishlab chiqarish hajmlarini kamaytirish sabablarini o'rganib ularni bartaraf etish yuzasidan zaruriy choralar ko'rish. 2. Mazkur korxonalar faoliyatini monitoring qilib borish. 3. Korxonalar faoliyati yuzasidan Iqtisodiyot va moliya vazirligi qoshida tashkil etilgan sanoat shtabiga axborot berib borish.	Mablag' talab etilmaydi	2026 yil fevral har chorak yakunida	Tuman hokimining o'rinbosari Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi boshlig'i A.Axrоров, Iqtisodiyot va moliya bo'limi

**2026-yilda Farg‘ona tumanida sanoatni rivojlantirish bo‘yicha
MAQSADLI KO‘RSATKICHLAR**

T/r	Indikatorlar nomi	O‘lchov birligi	2026 yil (reja)	shundan:				Mas’ullar
				I chorak	II chorak	III chorak	IV chorak	
1.	Sanoat mahsulotlari o‘sinh sur’ati	foiz	106,9	108,5	107,8	106,6	106,9	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi
2.	“Drayver” loyihalarni amalga oshirish	ta	1				1	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi
3.	Barcha toifadagi sanoat zonalaridagi 16,3 gektar bo‘sh yer maydonlarga istiqbolli loyihalarni joylashtirish	hektar	16,3				16,3	Investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi
4.	Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash quvvatlarini ishga tushirish	ming tonna	7,5				7,5	Investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi
5.	Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish yo‘nalishida amalga oshiriladigan 3 ta loyiha bo‘yicha mikrodesturni amalga oshirish	ta	3		1		2	Iqtisodiyot va Moliya bo‘limi
6.	Sanoat zonolari hamda sanoat markazlaridagi infratuzilmani yaxshilash	mlrd.so‘m	2.7				2.7	Iqtisodiyot va Moliya bo‘limi

Xalq deputatlari Farg‘ona tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-17-138-11-163-K/25 -son qaroriga
2-ilova

**2026-yilda Farg‘ona tumanida qishloq xo‘jaligi sohasini rivojlantirish
KICHIK DASTURI**

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Talab etiladigan mablag‘, manbasi (mln. so‘m)	Muddati	Mas’ullar
1.	Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmini 3818,7 mlrd so‘m, 104 foizga o‘shir sur‘atini ta‘minlash.	1. Tumanda 701 gektarga “To‘qsonbosti” usulida ekilgan sabzavotlar nes-nobud qilmasdan yig‘ishtirib olinadi. 2. 2026 yil hosili uchun asosiy maydonlarga 650 gektarga kartoshka, 1834 gektar sabzavot, 30,0 gektar poliz, 655 gektarga moyli ekinlar, 78,8 gektarga dukkakli don, 3743 gektarga ozuqa ekinlarini to‘liq ekilishi ta‘minlanadi. 3. Tumanda g‘alladan bo‘shagan 2804 gektar shundan, 1284 gektar sabzavot, 15 gektar poliz, 110 gektarga moyli ekinlar, 255 gektarga dukkakli don, 949 gektarga ozuqa ekinlari to‘liq ekilishi ta‘minlanadi. 4. Hududiy dasturlarga asosan 2026 yilda aholi tomorqalariga 1150 gektar erta bahorgi, 962,5 gektar takroriy, hamda 1123,5 gektar to‘qsonbosti usulida ekinlarni ekish.	Tashabbuskorlar, tijorat banklari kreditlari	2026 yil 1 mart 2026 yil 1 iyun 2026 yil 1 avgust 2026 yil 1 oktyabr	Tuman hokimining qishloq xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, Qishloq xo‘jaligi bo‘limi

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Talab etiladigan mablag‘, manbasi (mln. so‘m)	Muddati	Mas’ullar
		5. Aholi tomorqalarida ekilgan erta bahorgi ekin maydonlardan 26,0 ming tonna, takroriy maydonlardan 17,5 ming tonna, hamda to‘qsonbosti usulida ekin maydonlaridan 3,1 ming tonna hosil olish ta’minlanadi. 6. Paxta va g‘alladan qisqargan 2085 gektar maydonlardan 18 ming tonna qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirilishi ta’minlanadi. 7. Chetdan 1100 boshdan ziyod naslli qoramol olib kelinadi. 8. Suv tejamkor texnologiyalar joriy qilish maydonini 2014 ming gektarga shu jumladan tomchilatib sug‘orish tizimini 2021 ming gektarga yetkaziladi. 9. Umumiy qiymati 7,9 mlrd so‘mlik 4 tadan ortiq chorvachilik hamda 3,9 mlrd so‘mlik 4 ta oziq-ovqat loyihalari amalga oshiriladi. 10. Suv tejamkor texnologiyalar joriy qilish maydonini 2140 gektarga shu jumladan tomchilatib sug‘orish tizimini 1840 gektarga yetkaziladi. 11. Umumiy qiymati 7,9 mlrd so‘mlik 4 tadan ortiq chorvachilik hamda 3,1 mlrd so‘mlik 4 ta oziq-ovqat loyihalari amalga oshiriladi.		2026 yil 1 noyabr 2026 yil avgust yil davomida yil davomida yil davomida yil davomida	
2.	Agrostar kompaniyalar bilan hamkorlikda agrokomplekslarni tashkil etish.	1. Tanlangan maydonda suv ta’minotini yaxshilash bo‘yicha loyiha smeta hujjatlarini ishlab chiqish.	O‘z mablag‘i hisobidan 50,0 mlrd .so‘m,	2026 yil 1 iyun	Tuman hokimining qishloq xo‘jaligi masalalari bo‘yicha

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Talab etiladigan mablag‘, manbasi (mln. so‘m)	Muddati	Mas‘ullar
	“Farg‘ona Agro Star” MChJ tomonidan Farg‘ona tumanida umumiy quvvati 10 ming tonnali o‘rik maxsulotini qayta ishlashni yo‘lga qo‘yish loyixasini amalga oshirish.	2. Tayyorlangan yer maydonida uzumchilik plantatsiyalarini tashkil qilish istagini bildirgan tashabbuskorlarga aukcion savdolari orqali belgilangan tartibda yer ajratish. 3. Loyiha tashabbuskorlariga sohadagi malakali agronom jalb qilgan holda konsultativ xizmatlar ko‘rsatilishini tashkil qilish.			o‘rinbosari, Qishloq xo‘jaligi bo‘limi, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi
3.	250 gektar maydonda, shu jumladan eski bog‘larni yangilash hisobiga yangi intentsiv bog‘ va tokzorlar barpo qilish.	1. Barpo etiladigan bog‘ va tokzor maydonlarini toifasi va foydalanish turini aniqlash. 2. Toifasi va foydalanish turi o‘zgartirilishi talib etiladigan yer maydonlarini belgilangan tartibda toifasi va turini o‘zgartirish. 3. Yer maydonlarini talabgorlar va tashabbuskorlarga belgilangan tartibda ajratish. 4. Ko‘chat yetkazib beruvchilar bilan shartnoma tuzish. Bunda, ko‘chat sotib olishda davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash instrumentlaridan foydalanish. 5. Yer tayyorlash va ko‘chat ekish ishlarini amalga oshirish. Bunda, Agrosanoatni rivojlantirish agentligi xizmatlaridan foydalanish.	(O‘z mablag‘i)	2026 yil 1 fevral Belgilangan muddatlarda 2026 yil 1 iyun 2026 yil 1 iyul 2026 yil 1 dekabr	Tuman hokimining qishloq xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, Qishloq xo‘jaligi bo‘limi, Agrosanoatni rivojlantirish agentligi filiali
4.	Organik usulda 4 gektar yer maydonlarida 20 tonna sabzavot, kartoshka, meva va uzum mahsulotlari	1. Mahallalar kesimida organik usulda mahsulot yetishtiruvchi tashabbuskorlar ro‘yxatini shakllantirish.	(Mahalliy byudjet, tashabbuskorlar	2026 yil 1 fevral	Tuman hokimining qishloq xo‘jaligi masalalari bo‘yicha

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Talab etiladigan mablag‘, manbasi (mln. so‘m) <i>mablag‘i</i>	Muddati	Mas’ullar
	yetishtirishni yo‘lga qo‘yish.	2. Agronom va tajribali dehqonlarni jalb qilgan holda tashabbuskorlar bilan birgalikda mahsulotlarni organik usulda yetishtirish bo‘yicha reja tadbirlarini tuzish. Zarur hollarda organik mahsulot yetishtiriladigan maydon tuprog‘i namunasidan agrokimyoviy tahlil o‘tkazish. 3. Mahsulotlarni organik usulda yetishtirishni to‘g‘ri tashkil qilish.	<i>mablag‘i</i>	2026 yil 1 mart Yil davomida	o‘rinbosari, Qishloq xo‘jaligi bo‘limi, Karantin agentligi bo‘limi, Agrosanoatni rivojlantirish agentligi filiali, Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari tuman Kengashi
5.	Aholiga ijaraga berilgan 102,8 gektar qishloq xo‘jaligi ekin yerlarida “bir kontur – bir mahsulot” tamoyili asosida mahsulot yetishtirish.	1. Namunaviy loyihalar tashkil etish uchun aholi yashash punktlariga yaqinda joylashgan, suv ta‘minoti yaxshi bo‘lgan, 10 gektardan kam bo‘lmagan bittadan konturlarni tanlash. 2. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi, eksportchi eksportga yuborish va ichki bozorlarga yetkazib berish faoliyati bilan shug‘ullanadigan “etakchi” tadbirkorlarni aniqlash va har bir konturga biriktirish. Bunda, tadbirkor va aholi o‘trasida uchrashuv va targ‘ibot tashkil etish. 3. Yer ijarachilarini dehqon xo‘jaligi sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va qishloq xo‘jaligi kooperativlariga birlashtirish. 4. Urug‘lik va ko‘chatlarni sotib olish va ularni to‘liq ekilishini tashkil qilish	<i>(Mahalliy byudjet, tashabbuskorlar mablag‘i)</i>	2026 yil 1 fevral 2026 yil 15 fevral Doimiy Doimiy	Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlika ko‘maklashish bo‘limi, Qishloq xo‘jaligi bo‘limi, tijorat banklari

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Talab etiladigan mablag‘, manbasi (mln. so‘m)	Muddati	Mas‘ullar
		maqsadida “etakchi” tadbirkorga yoki ijarachiga moliyaviy ko‘mak berish. Zarur hollarda tanlangan konturlarda suv ta‘minotini yaxshilash.			
6.	Qishloq xo‘jaligida oborotdan chiqqan 550 gektar yerlarni qayta foydalanishga kiritish.	1. Tuman hokimligi zaxirasida bo‘lgan o‘zlashtiriladigan va qayta foydalanishga kiritiladigan yer maydonlarining manzilli ro‘yxati shakllantirish. 2. Suv bilan ta‘minlash imkoniyati mavjudligi bo‘yicha Suv xo‘jaligi vazirligining xulosasi; yer osti suvlari zaxirasining mavjudligi bo‘yicha Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligining xulosasi; yer maydonlarini o‘zlashtirish va qayta foydalanishga kiritish uchun amalga oshiriladigan tadbirlar va taxminiy hisob-kitoblarga hamda moliyaviy manbaalariga aniqlik kiritish. 4. Yer maydonlarini foydalanishga kiritish bo‘yicha loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan tadbirlarni amalga oshirish uchun eng yaxshi takliflarni tanlab olish orqali pudrat tashkilotlari (Pudratchi) aniqlash. 5. Tuman komissiyasi tomonidan yer maydonlarini foydalanishga kiritilganligi bo‘yicha tuzilgan dalolatnomalar asosida qabul qilish..	(Mahalliy byudjet, tashabbuskorlar mablag‘i)	2026 yil 1 fevral 2026 yil 1 mart 2026 yil 1 aprel Doimiy	Tuman hokimining qishloq xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, Qishloq xo‘jaligi bo‘limi
7.	Suv tejovchi texnologiyalar tomchilatib sug‘orish va yomg‘irlatib sug‘orish tizimlarini joriy qilish.	1. Suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilishga ko‘maklashuvchi servis xizmat ko‘rsatish guruhlarini faoliyatini yo‘lga qo‘yish.	Mablag‘ talab qilinmaydi	2026 yil yanvar	Tuman hokimining qishloq xo‘jaligi masalalari bo‘yicha

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Talab etiladigan mablag‘, manbasi (mln. so‘m)	Muddati	Mas‘ullar
		2. Kredit mablag‘lari hisobidan suv tejoychi texnologiyalarni joriy qilish loyihalarini amalga oshirish uchun loyiha tashabbuskorlariga “suv.kredit.uz” elektron tizimi orqali ariza topshirishda ko‘maklashish. 3. Suv tejoychi texnologiyalar joriy qilinadigan maydonlarda qurilish ishlarini boshlash bo‘yicha doimiy monitoring olib borish. 4. Joriy qilingan suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalari uchun subsidiya olish maqsadida “Agro-subsidiya” AT orqali ariza topshirishga ko‘maklashish.	Hisob-kitobga ko‘ra tijorat banklari kreditlari Mablag‘ talab qilinmaydi Mablag‘ talab qilinmaydi	2026 yil yanvar-aprel Doimiy 2026 yil 1 dekabrga qadar	o‘rinbosari, Suv yetkazib berish xizmati DM, tijorat banklari
8.	Farg‘ona tumanning 200 gektar yer maydonlarida malina plan-tatsiyalarini tashkil etish.	1. Malina o‘simligiga mos yer maydonlarini aniqlash. 2. Yer maydonini aukcion savdolariga chiqarish. 3. Loyihalarni belgilangan muddatlarda ishga tushirish	Xisob –kitoblarga asosan (Mahalliy byudjet, tashabbuskorlar mablag‘i)	2025-2026 yillarda kuzgi-va boxorgi mavsumda	Tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, Qishloq xo‘jaligi bo‘limi, Kadastr agentligi bo‘limi
9.	Farg‘ona tumani "FERGANA AGRO CLUSTER AND LOGISTICS" MCHJ QK 200 gektarda Bog‘dorchilik kompleksini tashkil etish loyihasini amalga oshirish.	1. Bog‘dorchilik kompleksi barpo etish maqsadida 200 gektar yer maydonlarini tanlash 2. Tanlangan 200 gektar yer maydonlarida Bog‘dorchilik kompleksi tashkil qilish aukcion savdolariga chiqarish; 3. Ko‘chatlarini ekish ishlarini tashkillashtirish;	Xisob –kitoblarga asosan (Mahalliy byudjet, tashabbuskorlar mablag‘i)	2025-2026 yillarda kuzgi-va boxorgi mavsumda	Tuman hokimining qishloq xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, Kadastr agentligi bo‘limi

2.1-ilova

**2026-yilda Farg‘ona tumanida qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning
MAQSADLI KO‘RSATKICHLAR**

T/r	Shahar va tuman nomi	Indikatorlar nomi	O‘lchov birligi	2026 yil (reja)	shundan:				Mas’ullar
					I chorak	II chorak	III chorak	IV chorak	
1.	Farg‘ona t	Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari o‘sish sur‘ati	foiz	104,0	103,7	103,7	103,7	104,0	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi
2.	Farg‘ona t	Agrostar kompaniyalar bilan hamkorlikda agrokomplekslarni tashkil etish (loyiha)	ta	1	0	1	0	0	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi
3.	Farg‘ona t	Yangi intentsiv bog‘ va tokzorlar barpo qilish (sh.j. eski bog‘lar o‘rnida)	gektar	250,0	50,0	125,0	0,0	75,0	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi
4.	Farg‘ona t	Organik mahsulotlar yetishtirish	gektar	4			4		Qishloq xo‘jaligi bo‘limi
5.	Farg‘ona t	Aholiga ijaraga berilgan yer maydonlarda “bir kontur – bir mahsulot” tamoyili asosida namunali loyihalarni amalga oshirish	gektar	102,8	36,0	41,1	15,4	10,3	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi

6.	Fargʻona t	Er maydonlarni oʻzlashtirish va qayta foydalanishga kiritish	<i>gektar</i>	550,0	137,5	137,5	137,5	137,5	Qishloq xoʻjaligi boʻlimi
7.	Fargʻona t	Suv tejoychi texnologiyalarni joriy qilish	<i>ming gektar</i>	2,14	0,749	0,642	0,535	0,214	Tuman “Suv yetkazib berish xizmati” DM

Xalq deputatlari Farg‘ona tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-17-138-11-163-K/25 -son qaroriga
3-ilova

**2026-yilda Farg‘ona tumanida qurilish sohasini rivojlantirish
KICHIK DASTURI**

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Talab etiladigan mablag‘, manbasi (mlrd. so‘m)	Muddati	Mas‘ullar
1.	Qurilish ishlari xajmini 677 mlrd.so‘m, 119,9 foizga o‘shir sur‘atini ta‘minlash.	1. Tumanda qurilish korxonalarini xatlovdan o‘tkazish. 2. Qurilish korxonalarini doimiy ishlashini ulardagi mavjud muammolarni doimiy monitoring qilish. 3. Tumanda olib borilayotgan qurilish ishlarini o‘z vaqtida ishga tushirilishiga ko‘maklashish.	Mablag‘ talab etilmaydi	2026 yil yil davomida	Tuman hokimining qurilish bo‘yicha o‘rinboari, Qurilish va uy-joy bo‘limi.
2.	O‘zboshimchalik bilan egallangan yer uchastkalari va ularda qurilgan ob‘ektlarni xatlovdan o‘tkazish.	1. O‘zboshimchalik bilan egallangan yer uchastkalari va ularda qurilgan ob‘ektlarni xatlovdan o‘tkazish. 2. 2025 yilda aniqlangan obektlarni belgilangan tartibda oldirib tashlash choralari ko‘rish.	Mablag‘ talab etilmaydi	2026 yil may 2026 yil dekabr	Tuman hokimining qurilish bo‘yicha o‘rinboari, Qurilish va uy-joy bo‘limi, Kadastr agentligi tuman bo‘limi.
3.	Jamoatchilik fikri asosida (“ochiq byudjet” doirasida) tadbirlarni moliyalashtirish.	1. Jamoatchilik fikri asosida (“ochiq byudjet” doirasida) tadbirlarni ya’ni tashabbus qo‘yish jarayonlariga ko‘maklashish. 2. “Ochiq byudjet” doirasida ovoz	47,7 mlrd.so‘m (byudjet mablag‘lari hisobidan)	2026 yil fevral-mart, iyul-avgust 2026 yil	Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari, tuman hokimining qurilish bo‘yicha o‘rinboari,

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Talab etiladigan mablag‘, manbasi (mlrd. so‘m)	Muddati	Mas’ullar
		berish jarayonlarini shaffof o‘tkazishni ta’minlash. 3. “Ochiq byudjet” dasturi doirasida ajratilgan 35,5 mlrd.so‘m pul mablag‘larini maqsadli sarflanishini ta’minlash.		fevral-mart, iyul-avgust	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi, tegishli tashkilot va muassasa raxbarlari.
4.	Ko‘p kvartirali uy-joylar qurilishini ko‘paytirish hamda mavjud ko‘p kvartirali uylarni ta’mirlash.	1. Tumanda ko‘p kvartirali uy-joylar qurish istagi bor tadbirkorlik sub’ektlarini aniqlash. 2. 2026 yil davomida qurilish ishlari boshlangan 399 ta xonadonli ko‘p kvartirali uy-joylarni qurilishini sifatli yakunlashni ta’minlash. 3. Tumanda mavjud ko‘p kvartiralarining tashqi fasad qismlarini ta’mirlash.	Xisob kitoblarga asosan (tashabbuskor mablag‘lari hisobidan)	2026 yil fevral 2026 yil dekabr 2026 yil dekabr	Tuman hokimining qurilish bo‘yicha o‘rinboari, Qurilish va uy-joy bo‘limi, Kadastr agentligi tuman bo‘limi
6.	Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari holatini yaxshilash hamda aholi punktlarida piyodalar va velosiped yo‘laklarini tashkil etish.	1. Umumiy foydalanishdagi 26 km avtomobil yo‘llari holatini yaxshilash. 2. Aholi punktlarida 1 km piyodalar va velosiped yo‘laklarini tashkil etish. 3. Yuqoridagi ishlarni vaqtida bajarilishini ta’minlash.	Xisob kitoblarga asosan	2026 yil may 2026 yil iyul 2026 yil dekabr	Tuman hokimining qurilish bo‘yicha o‘rinboari, Qurilish va uy-joy bo‘limi, Avtomobil yo‘llari bo‘limi.
7.	Markazlashgan ichimlik suv bilan ta’minlanganlik darajasini oshirish hamda aholi xonadonlarini ichimlik suvi tarmog‘iga ulash.	1. Markazlashgan ichimlik suv bilan ta’minlanganlik darajasini 84 foizga yetkazish. 2. Yuqoridagi ishlarni vaqtida bajarilishini ta’minlash.	Xisob kitoblarga asosan	2026 yil may 2026 yil dekabr	Tuman hokimining qurilish bo‘yicha o‘rinboari, Qurilish va uy-joy bo‘limi, “Suv ta’minoti” MChJ
9	Aholiga elektr energiya yetkazib berish yaxshilash	1. Yuqori va past kuchlanishli 20 km elektr tarmoqlariga almashtirish. 2. Transformator punktlari eskirga va	Xisob kitoblarga asosan	2026 yil may	Tuman hokimining qurilish bo‘yicha o‘rinboari,

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Talab etiladigan mablag‘, manbasi (mlrd. so‘m)	Muddati	Mas’ullar
		kuchlanishda ishlayotgan hududlarga 5 ta yangi transformatorlar o‘rnatish.		2026 yil dekabr	Qurilish va uy-joy bo‘limi, tuman elektr tarmoqlari korxonasi

3.1-ilova

T/r	T/r	Ob'ekt nomi	Amalga oshirish muddati	tumani nomi	Ish turi	Loyiha quvvati, jami		Shundan, 2026 yilda foydalanishga topshiriladigan quvvat	shu jumladan			Loyiha (ob'ekt)ning dastlabki qiymati	Moliyalashtirish manbasi	Mas’ul ijrochilar
						O'lchov birligi	Quvvati		Yangi qurilish	Rekonstruksiya qilish	Mukammal ta'mirlash			
	6	Jami										20 600,0	20 600,0	
		shu jumladan:												
	1	Yo'l-transport infratuzilmasi										3 000,0	3 000,0	
		shu jumladan:												
	1	Avtomobil yo'llari va ko'priklar				km	4,0		0,0	0,0	0,0	3 000,0	3 000,0	
	1	Irrigatsiya va melioratsiya										12 000	12 000	
		shu jumladan:												
	1	Irrigatsiya tarmoqlari va inshootlari				kanal, km	158,8	39,2	0,0	39,2	0,0	12 000,0	12 000,0	
						GTI, dona								
						n-s, m3/sek								
	4	Qirg'oq bo'yi va boshqa himoya inshootlari				damba, km	2	2	0	2	0	5 600,0	5 600,0	
	1	Avtomobil yo'llari, ko'priklar				km	4		0	0	0	3 000,0	3 000,0	
						pm								
						ob'ekt								
	1	Avvalgi yillardan o'tuvchi				km	4		0	0	0	3 000,0	3 000,0	
						pm								
						ob'ekt								
						km	4		0	0	0			

	1	Yangi qurilish				pm ob'ekt						3 000,0	3 000,0	
	1	"Yangi O'zbekiston" massivlarining ichki va tashqi yo'llarini qurish				km	4,0		0,0	0,0	0,0			
1	1	Farg'ona tumani "Yangi asr" MFY hududida barpo etilayotgan "Yangi O'zbekiston" massivlarining avtomobil yo'llarini qurish	2025-2027 yillar	Farg'ona tumani	Avtomobil yo'llari va ko'priklar	km	4,0					3 000,0	3 000,0	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 9 dekabrda PF-32-son Farmoni
	1	Irrigatsiya tarmoqlari va inshootlari				kanal, km	158,8	39,2	0,0	39,2	0,0	12 000,0	12 000,0	
						GTI, dona								
						n-s, m3/sek								
	1	Xalqaro moliya institutlari ishtirokidagi loyihalarining davlat budjeti qismi				kanal, km	158,8	39,2	0,0	39,2	0,0	12 000,0	12 000,0	
	1	Avvalgi yillardan o'tuvchi				kanal, km	158,8	39,2	0,0	39,2	0,0	12 000,0	12 000,0	
	1	Rekonstruksiya qilish					158,8	39,2	0,0	39,2	0,0	12 000,0	12 000,0	
2	1	Farg'ona vodiysida suv resurslarini boshqarish (2-bosqich)	2022-2026 yillar	Farg'ona tumani	irrigatsiya tarmoqlari	kanal, km	158,8	39,2		39,2		12 000,0	12 000,0	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16-sentabrda PQ-3282-son qarori
	4	Qirg'oq bo'yi va boshqa himoya inshootlar				damba, km	2,0	2,0	0,0	2,0	0,0	5 600,0	5 600,0	
	4	Yangidan boshlanuvchi				damba, km	2	2	0	2	0	5 600	5 600	
	4	Rekonstruksiya qilish				damba, km	2,0	2,0	0,0	2,0	0,0	5 600,0	5 600,0	
3	1	Shoximardon MFY Qurko'l sel yo'lini ta'mirlash va qirg'oqlarini mustxamlash ishlari	2026 yil	Farg'ona tumani	qirg'oq bo'yi va boshqa himoya inshootlar	damba, km	0,5	0,5		0,5		1 200,0	1 200,0	Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 21 dekabrda 1009-son qarori (FVV taklifi sanasi)
4	2	Shoximardon MFY Tosh sel yo'lini ta'mirlash va qirg'oqlarini mustxamlash ishlari	2026 yil	Farg'ona tumani	qirg'oq bo'yi va boshqa himoya inshootlar	damba, km	0,6	0,6		0,6		2 100,0	2 100,0	Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 21 dekabrda 1009-son qarori (FVV taklifi sanasi raqami)
5	3	Shoximardon MFY Kengsoy sel yo'lini ta'mirlash va qirg'oqlarini mustxamlash ishlari	2026 yil	Farg'ona tumani	qirg'oq bo'yi va boshqa himoya inshootlar	damba, km	0,5	0,5		0,5		1 200,0	1 200,0	Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 21 dekabrda 1009-son qarori (FVV taklifi sanasi raqami)
6	4	Shoximardon MFY «Tangi» sel yo'li o'zanlarini tozalash ishlari	2026 yil	Farg'ona tumani	qirg'oq bo'yi va boshqa himoya inshootlar	damba, km	0,4	0,4		0,4		1 100,0	1 100,0	Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 21 dekabrda

3.2-ilova

T/r	T/r	Ob'ekt nomi	Amalga oshirish muddati	tumani nomi	Ish turi	Loyiha quvvati, jami		Shundan, 2026 yilda foydalanishga topshiriladigan quvvat	shu jumladan			Loyiha (ob'ekt)ning dastlabki qiymati	Moliyalashtirish manbasi	Mas'ul ijrochilar
						O'Ichov birligi	Quvvati		Yangi qurilish	Rekonstruktsiya qilish	Mukammal ta'mirlash			
	I	Umumta'lim maktablari				O'quv o'rni	1 220	1 220	600	0	620	17 800,0		
						Sport zal (12x24)								
	II	Maktabgacha ta'lim tashkilotlari				O'rin	120,0	120,0	0,0	120,0	0,0	5 592,0		
	III	Sog'liqni saqlash muassalari				o'rin						2 000,0		
						qatnov	50	50	0	0	50			
						ob'ekt								
	1	Umumta'lim maktablari				O'quv o'rni	1 220	1 220	600	0	620	17 800,0		
						Sport zal (12x24)								

	1	Rekonstruksiya qilish				O'quv o'rni	1 220	1 220	600	0	620	17 800,0		
						Sport zal (12x24)								
1	1	Farg'ona tumani "Obod" MFYdagi 3-sonli maktabini rekonstruksiya qilish	2026-yil	Farg'ona tumani	Rekonstruksiya qilish	O'quv o'rni	1 220	1 220	600		620	17 800,0	Respublika	Farg'ona viloyati hokimligi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi
	1	Maktabgacha ta'lim tashkilotlari				O'rin	120,0	120,0	0,0	120,0	0,0	5 592,0		
	1	Rekonstruksiya qilish				O'rin	120	120	0	120	0	5 592,0	0,0	
2	1	Farg'ona tumani "Xonqiz" MFYdagi 46-son MTTni rekonstruksiya qilish	2026-yil	Farg'ona tumani	Rekonstruksiya qilish	O'rin	120	120		120		5 592,0	Respublika	Farg'ona viloyati hokimligi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi
	1	Sog'liqni saqlash muassalari				o'rin						2 000,0		
						qatnov	50	50	0	0	50			
						ob'ekt								
	1	Mukammal ta'mirlash				o'rin						2 000,0		
						qatnov	50	50	0	0	50			
						ob'ekt								
3	1	Farg'ona tumani "Kaptarxona" MFY oilaviy shifokorlik punkti mukammal ta'mirlash	2026-yil	Farg'ona tumani	Mukammal ta'mirlash	qatnov	50	50			50	2 000,0	Respublika	Farg'ona viloyati hokimligi Sog'liqni saqlash vazirligi

3.3-ilova

2026 yilda Farg'ona tumanida qurilish sohasini rivojlantirishning MAQSADLI KO'RSATKICHLAR

T/r	Indikatorlar nomi	O'lchov birligi	2026 yil (reja)	shundan:	Mas'ullar
-----	-------------------	--------------------	--------------------	----------	-----------

				I chora k	II chorak	III chorak	IV chorak	
1.	Qurilish ishlari o'sish sur'ati	foiz	110	106	106	108	110	Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi
2.	Xalqaro moliya institutlari ishtirokidagi "Qishloq infratuzilmasi va "O'rta shaharlar" loyihalari doirasida mablag'larni o'zlashtirish	mln doll.						Tuman hokimligi
3.	"Yangi O'zbekiston qiyofasidagi tuman (shahar)" maqomini berib, ularni aholining yashashi va tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi uchun namunali hududga aylantirish doirasida mablag'larni o'zlashtirish	mln.so'm	0					Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi
4.	«Yangi O'zbekiston qiyofasidagi mahalla» maqomini berib, ularga shahar muhiti va yashash sharoitlarini olib kirish bo'yicha yangi yondashuvlar doirasida mablag'larni o'zlashtirish	mln.so'm	10000				10000	Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi
5.	Ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida ajratilgan kapital qo'yilmalar limitlarini o'zlashtirish choralarini ko'rish	mlrd.so' m	46	7	11	18	9	Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi

6.	Aholini uy-joylar bilan ta'minlash dasturi doirasida turar joylar qurilishini tashkil etish	xonadon soni	399	44	88	135	132	Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi
7.	Ichki yo'llarni qurish va ta'mirlash	km	26		6	16	26	Avtomobil yo'llari bo'limi
8.	Aholi punktlarida piyodalar va velosiped yo'laklarini barpo etish	km	1		1	1	1	Tuman hokimligi
9.	Ko'p kvartirali uylarni ta'mirlash	ta	11		3	5	3	Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi
10.	Markazlashgan ichimlik suv bilan ta'minlanganlik darajasi	foiz	84	83	83	84	84	"Suv ta'minoti" MChJ
11.	Yuqori va past kuchlanishli elektr tarmoqlarini tortish	km	20	6	5	4	6	"Hududiy elektr tarmoqlari" AJ
12.	Transformator punktlarini o'rnatish	ta	5		1	1	3	"Hududiy elektr tarmoqlari" AJ
13.	Ko'prik inshootlarini tiklash	ta						Tuman hokimligi

Xalq deputatlari Farg‘ona tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-17-138-11-163-K/25 -son qaroriga
4-ilova

**2026-yilda Farg‘ona tumanida xizmatlar sohasini rivojlantirish
KICHIK DASTURI**

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Moliyalashtirish manbasi (mln. so‘m)	Muddati	Mas’ullar
1.	Xizmat ko‘rsatish hajmini 2026 yilda 1 921,7 mlrd so‘m , o‘rish sur‘atini 114 foizga oshirish.	1. 222 ta yangi xizmat ko‘rsatish loyihalarni ishga tushirish. 2. Umumiy qiymati 15,0 mlrd.so‘m bo‘lgan 3 ta investitsiya loyihalarini amalga oshirish va 150 ta ish o‘rinlarini yaratish. 3. Yo‘l bo‘yida savdo va xizmat ko‘rsatish ob‘ektlarini ishga tushirish.	Xisob kitoblar asosida (<i>Respublika byudjeti, mahalliy byudjet, tashabbuskorlar mablag‘i</i>)	2026 yil Davomida	Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari, Iqtisodiyot va moliya bosh bo‘limi Tijorat banklari
2.	Maxsus xizmat ko‘rsatish ko‘chalariga aylantiriladigan 1 ta markaziy ko‘chalarida ko‘ngil ochar 14 tadan ortiq savdo va servis ob‘ektlarini tashkil etish.	1. 24/7 tunu kun faoliyat yuritiladigan markaziy ko‘chani aniqlash. 2. Aniqlangan ko‘chani infratuzilma qiyofasini qurilish rekonstruksiya ishlarini amalga oshirish. 3. Markaziy ko‘chada xizmat ko‘rsatish ob‘ektlarini joylashtirish bo‘yicha yerlarni ijara asosida tadbirkorlik sub‘ektlariga ajratish.	Xisob kitoblar asosida (<i>mahalliy byudjet, tashabbuskorlar mablag‘i</i>)	2026 yil davomida	Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari, Iqtisodiyot va moliya bo‘limi, tuman hokimligi
3.	Xizmatlar sohasini rivojlantirish maqsadida 118 ta shundan 84 tasi ko‘chma savdo faoliyati uchun yer maydonlarni auksion savdolariga chiqarish.	1. O‘tkazilgan xatlov natijasida va hokim yordamchilari hamda tadbirkorlardan kelib tushgan takliflar asosida bo‘sh yer maydonlarini aniqlash. 2. Aniqlangan bo‘sh yer maydonlarini mas’ul tashkilotlar bilan kelishish jarayonlarini	Xisob kitoblar asosida (<i>Respublika byudjeti, mahalliy byudjet, tashabbuskorlar</i>	2026 yil davomida	Tuman hokimligi, Qurilish va kommunal xo‘jaligi bo‘limi, Kadastr agentligi, Kambag‘allikni

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Moliyalashtirish manbasi (mln. so'm) mablag'i	Muddati	Mas'ullar
		jadallashtirish. 3. Yer maydonlarini savdo-servis ob'ektlarini tashkil etish uchun auksion savdolarga chiqarish. 4. Tadbirkorlar talabi asosida ularga kredit mablag'lari ajratilishida ko'maklashish. 6. Loyihalarni belgilangan muddatlarda ishga tushirish hamda doimiy monitoring qilib borish.			qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
4.	2026 yilda 131,7 mlrd. so'mlik aloqa va axborotlashtirish xizmatlari ko'rsatish orqali 116,1 foiz o'sish sur'atini ta'minlash.	1. Tuman ixtisoslashuvi va imkoniyatlaridan kelib chiqib, 2026 yil uchun belgilangan prognoz parametrlarining bajarilishini ta'minlash choralari ko'rish va doimiy monitoring qilib borish. 2. "Bir million dasturchi" loyihasi doirasida 1 250 nafar yoshlar o'qitish; 3. "Bir million dasturchi" loyihasi doirasida yoshlarni xalqaro professional IT-sertifikatlarga o'qitish; 4. 12 nafar davlat xizmatchilarini xalqaro professional IT-certifikat olish uchun o'qitish; 5. Xar bir mahallada " 7 nafar dasturchi " loyihasi doirasida yoshlarni ingliz va nemis tillariga o'qitish orqali 550 nafar yoshlarni ro'yxatini shakllantirish va o'qitish rejalarini tasdiqlash; 6. Loyihalarni belgilangan muddatlarda ishga tushirish hamda doimiy monitoring qilib borish.	Xisob kitoblar asosida (Respublika byudjeti, mahalliy byudjet, tashabbuskorlar mablag'i)	2026 yil davomida	Tuman hokimligi, Raqamli texnologiyalar vazirligining hududiy bo'limi, Iqtisodiyot va moliya bo'limi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
5.	2026 yilda 305,7 mlrd. so'mlik	1. Tuman ixtisoslashuvi va	Xisob kitoblar		Tuman hokimligi,

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Moliyalashtirish manbasi (mln. so'm)	Muddati	Mas'ullar
	transport xizmatlari ko'rsatish orqali 118,3 foiz o'sish sur'atini ta'minlash	imkoniyatlaridan kelib chiqib, 2026 yil uchun belgilangan prognoz parametrlarining bajarilishini ta'minlash choralari ko'rish va doimiy monitoring qilib borish. 2. tumanda avtobuslar qatnovi oralig'ini qisqartirish va yangi yo'nalishlar ochilishini ta'minlash maqsadida, yangi avtobuslar xarid qilish; 3. tuman hokimligi, Ichki ishlar bo'limi, Transport bo'limi va Avtomobil yo'llari bo'limi bilan birgalikda Toshkent shahridagi: - norasmiy avtoto'xtash joylarni aniqlash; - bekatlarga kirish chiqish yo'laklarini tartibga keltirish; - chorraxalar kesishmalarini tartibga keltirish; 5. Bekatlarga kirish chiqish yo'laklarini o'rnatilgan talablarga muvofiq tartibga keltirish.	asosida (Respublika byudjeti, mahalliy byudjet, tashabbuskorlar mablag'i)		Transport bo'limi, Iqtisodiyot va moliya bo'limi, Investitsiya, sanoat va savdo bo'limi, Soliq inspeksiyasi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi, Statistika bo'limi, Tijorat banklari
6.	2026 yilda 475,1 mln. so'mlik savdo xizmati ko'rsatish orqali 112,6 foizga, 34,4 mln so'mlik yashash va ovqatlanish xizmatlari ko'rsatish orqali 113,2 foizga o'sish sur'atini ta'minlash.	1. Tuman ixtisoslashuvi va imkoniyatlaridan kelib chiqib, 2026 yil uchun belgilangan prognoz parametrlarining bajarilishini ta'minlash choralari ko'rish va doimiy monitoring qilib borish. 2. Tumanda 2 ta yirik savdo-ko'ngilochar markazlarini tashkil etish 3. Tumanda 2 ta yashash va ovqatlanish shaxobchalarini tashkil etish.	Xisob kitoblar asosida (Respublika byudjeti, mahalliy byudjet, tashabbuskorlar mablag'i)	2026 yil yakuniga qadar	Tuman hokimligi, Iqtisodiyot va moliya bo'limi, Investitsiya, sanoat va savdo bo'limi, Soliq inspeksiyasi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi, Statistika bo'limi,

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Moliyalashtirish manbasi (mln. so'm)	Muddati	Mas'ullar
					Tijorat banklari
